

**ODIL YOQUBOVNING ULUG‘BEK XAZINASI ROMANIDA
ILGARI SURILGAN ILM G‘OYASI.**

Baxtiyorova Dilfuza Ulug‘bek qizi¹

¹ Urganch RANCH texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 21.02.2025

Revised: 22.02.2025

Accepted: 23.02.2025

KALIT SO’ZLAR:

*ilm, manaviyat,
ma’rifat, komil inson
sifatlari, Mirzo*

Ulug‘bek.

Ushbu maqolada Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida ilgari surilgan insonni manaviyatini yanada yuksaklarga olib chiquvchi xazina aslida ilm ekanligini inson qanchalik marifatli bo’lsa uni jamiyatdagi o’rnii ortishi haqida so’z boradi. Bundan tashqari Yusuf xos Hojibning QUTADG‘U BILIG asari va Jaloliddin Rumiyning Ma’naviy masnaviy asarida keltirilgan ilm haqidagi fikrlar o’rin olgan.

KIRISH. Istedodli yozuvchi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida nafaqat buyuk siymo Mirzo Ulug‘bek hayotida sodir bo‘lgan voqealarni ota va o‘g‘il, shu davrning ujtimoiy siyosiy vaziyatlari haqida balki asli xazina deb atalmish ilm alohida o‘rin oldi.

Asosiy qism. Biz ko ‘plab yozilgan ilmiy adabiyotlardan tarixdan bizga shu malumotlar ayonki Mirzo Ulugbek o‘z farzandi tomonidan ayovsizlarcha qatl etilgan. Roman boshlanish qismida Mirzo Ulugbek o‘z huzuriga ishonchli shogirdlaridan Ali Qushchini chorlaydi va undan iltimos qilib, shunday deydi: “Mening chin boyligim toj-u taxt emas ilm-u ma’rifat yo‘lida qilgan xizmatlarim bitgan asarlarim to‘plagan ilm xazinasini bilurmen. Bu bebaho xazinaaning taqdiri sening qo‘lingdadur Ali. Bu xazina butkul Movarounnahr ehtimol butun bashariyatning boyligidur. Mabodo Haq taolo bandayi ojizni saltanatdan masvo qilsa bu xazinani bo‘lg‘usi avlodlar uchun asrab qolmoq sening gardaniningdadur. Ehtimolki uni tog ‘larga oilib chiqib bir joyga yashirursen”.[1]

Bu asardan keltirilgan parchada Mirzo Ulug‘bek naqadar aqli zukko inson bo‘lganlarini shogirdidan kelajak avlodlar uchun yurishlarga yig‘gan kitoblarni asrab qolishini so‘raydi. Mirzo Ulug‘bek xatto qo‘limdan kelsa podshoxlikdan kechar edim o‘zimni ilm-u urfon uchun bo‘ladigan majlislarda qatnashar edim deya aytadi. Ammo insonlar bu fikrimni noto‘g‘ri talqin qilib, uni kurashmasdan taxtdan kechdi degan fiklar mavjud.

Shogirdi Ali qushchi ustozining qalbidan o‘tayotgan fikrni juda ham yaxshi anglaydi. U “Qo‘limdan kelsa edi shahzoda Abdulatifni to‘xtata olsam bu dardlariga bir chora topsam”- deya siqiladi. Ustoziga shogirdning qanchalik hurmat qilib ezozlashi Ali qushchining ko‘ngli pok toza yaxshi inson ekanligini yaqqol isbotidir.

Asar voqealari haqida Adabiyotshunos Y. Solijonov badiy asardagi dialog va monologlar haqida so‘z yuritib shunday yozadi: «Yozuvchi o‘z qahramonini yaratar ekan, unga ma’lum ma’noda munosabat bildiradi: uni yo yoqlaydi, yoki inkor qiladi, uchinchi yo’l yo’q! Bunday munosabat avtor nutqi orqali qahramon portiretini yaratishda, uning xatti-harakatlarini tasvirlashda, yon-atrofdagi narsa buyumlarni ifodalashda, ruhiy dunyosini tahlil etishda ko‘rinadi» [2].

Shunisi muhimki, asarda faqat Mirzo Ulug‘bek, Abdulatif, Ali Qushchi kabi tarixiy shaxslargina emas, Salohiddin zargar, Qalandar Qarnoqiy singari to’qima obrazlar ruhiyatini yoritishda dialog va monologlar ham kuchli uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Demak asardagi har bir obrazning asarni yanada tasirli bo‘lishiga kitobxon ko‘z o‘ngida voqealarni shakllanishiga yordam beradi.

Asar davomida bu nodir qo‘lyozmalarni Ali qushchi saqlab qoladi va ustozi vasiyatini to‘laqonli bajo etadi. Bu esa kelajak avlod ham bu asarlardan bahramand bo‘lishdi. Asarni eng tasirli qismlardan biri Mirzo Ulug‘bek shahzoda Abdulatif bilan yuzlashganda bobosi Amir Temur nasihatini aytadi Ey farzand bilgilkim buyuk bobong Amir Temurga vafo qilmagan toj-u taxt menga ham vafo qilmadi vaqt o‘tar senga ham vafo etmaydi.

Darhaqiqat toj-u taxt shahzoda Abdulatifga ham vafo qilmadi o‘z otasini o’ldirib padarkush bo‘ldi. Abdulatifga ham hiyonat qilishdi va uni ham o‘ldirishdi. Ilm Alloh tomonidan bandalariga ato etilgan eng ulug‘ nemat hatto hadis shariflarda ham ilmli fozil inson hurmat qilingan. Hadis shariflarning birida ham Abu Huvayro Roziallohu anhodan rivoyat qiladilar bir inson ul zotdan so‘rabdi olim darajasi ustunmi yo shahidnimi deganlarida unga javoban Qiyomat kunida olim inson darajasi shahid bo‘lgan inson darajasidan ming karra ustunroqdir. Bundan ko‘rinadiki ilmli inson har zamonda ham

qadrlangan . Bunday insonlar esa romanda Mirzo Ulug‘bek va shogirdlari Ali qushchi, Qalandar Qarnoqiylardir. Chunki ular umrini ilm yo‘lida sarfladilar.

“Ilm inson hayotida muhimmi?” degan savolga javoban Yusuf Xos Hojibning Qutadg‘u bilig asaridan javob topamiz. Inson dunyoga keldimi beshikdan qabrgacha ilm izlamog‘i kerak. Asarda insonni manaviy darajasi saviyasini belgilovchi ilmi ekanligi aytiladi. Podshoh Kuntug‘di va vazir Oyto‘ldi bilan suhbatda insonni qay yoshida ilm o‘rgangani maql deyilganda umrning sharchasmasi bo‘lmish yoshlikda deyiladi. Chunki yoshlikda inson xotirasi mustahkam bo‘ladi va otadan farzandga qilingan eng katta yaxshilik farzandini o‘qimishli qilishdir. Podshoh sifatlari ham huddi Mirzo Ulug‘bek singari adolatli ilmli marifatli bo‘lishi kerak. Ayonlari ham ilmli sadoqatli bo‘lsagina shundagina davlat va jamiyat rivojlanadi

Mavlono Jaloliddin Rumiyning asariga nazar tashlasak, mavlononi dunyoga mashhur qilgan asari Ma‘naviy Masnaviysida ham ilmga alohida to‘xtaladi. Insonni komilikka yetaklovchi yagona yo‘l ilmdir. Ilm saodat kaliti. Insonni yomon hislatlardan forix qilguvchi ham ilm shunday ekan har bir inson dunyoga keldimi umrini behuda o‘tkazmasin. Biz yoshlar ertaning sohiblarimiz shunday ekan bizga ato etilgan vaqtimizni behuda sarflamaylik. Hozirgi kunlarda yoshlar orasida kitob o‘qishga ilm olishga bo‘lgan qiziqishlar susaymoqda. Buning sabablaridan biri hozirgi kundagi ishlab chiqilgan og‘irni yengil, uzoqni yaqin qilguvchi texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish va ijtimoiy tarmoqlarda vaqtini sarflash asosiy sabab bo‘lmoqda. Qadri insonlar biz qandayin buyuk insonlarni ajdodlarimiz bizning jannatmakon yurtimizdan qanchadan-qancha olimlar marifatli ziyoli insonlar chiqqan shu insonlarga munosib avlod bo‘laylik.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish joizki yuqorida Ulug‘bek xazinasi romanining asosiy g‘oyalaridan ilmning beba ho boylik ekanini, shu boylikni bizga yetkazish uchun ajdodlarimiz jon kuydirganini va ilmning inson hayotidagi rolini bir nechta asarlar orqali ko‘rib chiqdik. Ulug‘bek xazinasi romani o‘qiyotgan kitobxonni qalbini larzaga soladi. Tarixiy voqealarni ham o‘zida jamlagan asar butun bir ijtimoiy siyosiy vaziyatni balki hech qachon o‘z o‘rnini ahamiyatni yo‘qotmaydigan insoniylik yaxshilik shogirdning ustoziga mehr-u muhabbati sadoqati aks etgan Insonning bu dunyodan olib keta oladigan yagona narsasi ilmidir. Shunday ekan bizga ato etilgan qisqa umrni to‘g‘ri yo‘lda sarflaylik.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Odil Yoqubov Ulug‘bek xazinasi romani. Toshkent 2024.
2. Imom al Buxoriyning Al Jomi As- Sahih asari (1-jild) Toshkent 1991.
3. Yusuf xos Hojibning Qutadg‘u bilig asari Toshkent 2007.
4. Jaloliddin Rumi Ma‘naviy masnaviy asari 1-jild Toshkent 2015.